

**HOZIRGI KUNGACHA KUZATILAYOTGAN COVID-19 INFEKTSIYASINING ASORATLARI****Isaqova N***Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti***Irgasheva Anora***2 - son Farg`ona Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunimizda barchani xavotirga solayotgan bu kovid bilan kasallangandan so`ngi infeksiyaning asoratlari bo`lib, endilikda biz uzimizni sog`lig`imiz uchun qayg`urishimiz zarur, buning uchun bezovta qiladigan har qanday kasallik belgilariga jiddiy qarab darhol mutaxassis vrachga murojaat qilish kerak*

**Kalit so`zlar:** *fibroz, aerob, limfopeniya, aritmiya, emboliya, tromboz, depressiya*

Bugungi kunda barchamiz uchun juda jiddiy va hayajonli masala bu Koronavirus infeksiyasidan keyingi asoratlari bo`lib bunda Pandemiya boshlangan vaqt davomida butun dunyo shifokorlari va olimlari ushbu makkor virusni o`rganishdi. Bu kasallikni uzoq muddatda odamlarga to`liq ta`sir qilishini aniqlashmoqda. Ammo hozir mutaxassislar kasallikni boshidan o`tkazganlarni hatto kasallikni engil shaklini yuqtirgan bemorlarda yurak, o`pka, miya, buyraklar va uning qon tomirlari hamda boshqa muhim tizimlarda jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta`kidlamoqdalar. Masalan pulmoniyoz fibroz holatida o`pka tuqimasi nafas olish jarayonida qatnasha olmasligi kuzatiladi O`pkadagi bunday tizimli o`zgarishlar uzoq muddatda tiklanishi mumkin. Shuning uchun COVID-19 bilan kasallangan odamlarga bir nechta kursatmalarni bajarishlari tavsiya etiladi. O`pka to`qimalarining zichligini aniqlash uchun KT(kompyutr tomografiya) tekshiruvidan o`tishi va tekshiruv natijalariga ko`ra o`pka to`qimalarining zichlashgan joylari saqlanib qolgani yoki kengayganligi aniqlanadi. Bunday bemorlar uchun rehabilitatsiya davo choralarini nafaqat nafas olish mashqlarini, balki fizioterapiya va boshqa aerob mashqlarni bajarishlari talab etiladi. Bunday hollarda suzish yaxshi samara beradi. Yurak-qon tomir tizimida COVID-19 bilan kasallanganlarda aritmiya, dekompensatsiya rivojlanishini va hattoki miyokard infarktining paydo bo`lishi kuzatiladi. Shuning uchun COVID-19 infeksiyasini oldini olish uchun bir qancha choralarni ko`rish kerak va sog`lig`i yomonlashganda darhol shifokor kardiolog bilan bog`lanishlari zarur. COVID-19 bilan kasallanganlarning uzoq muddatli immuniteti zaiflashadi. Tananing himoya funksiyalari pasayib qondagi limfotsitlar himoya darajasining pasayishlari vaqtinchalik va uzoq muddatli bo`lishi mumkin (Limfopeniya). COVID-19 bilan og`rigan bemorlarda (4-11 haftadan keyin ham odatiy alomatlar tiklanishdan keyin) ma`lum kasalliklarda ba`zi bir mutaxassislarining ta`kidlashicha, SARS-CoV-2 dan farqli o`laroq inson immuniteti limfotsitlarda replikatsiya funksiyasi buziladi. Shuning uchun bunday o`zgarishlar ichki organlarining kasalliklarini rivojlantiradi.

COVID-19 kasalligi davrida markaziy asab tizimida bir qancha o`zgarishlar sodi bo`ladi. Virusga nafaqat nafas olish organlari (shilliq qavat) epiteliya hujayralari balki markaziy asab tizimining to`qimalarining hujayralari ham sezgirdir. Ushbu ta`sirning yomon tomoni markaziy asab tizimining faoliyatining nevrologik va ruhiy bo`zilishlar kuzatiladi bunda

bemorlarda depressiya, xotira buzilishi va diqqat, fikrlash reaksiyalar tezligi pasayadi. COVID-19 qon aylanish tizimidagi buzilishlariga qon ivishi jarayonining oshishi kuzatilib va bu holat o'pka shishiga olib keladi. Kasal bo'lganlarda koronavirusli pnevmoniya bilan trombotik asoratlar paydo bo'lishi mumkin.

O'pka, miya, yurak kabi organlarning tuqimalarida mayda qon tomirlar yorilishi munosabati bilan qon qo'yilishlar sodir bo'ladi. Bu o'pka emboliyasi, insult, yurak xuruji rivojlanish xavfini oshiradi va chuqur tomirlar trombozi kuzatiladi. Bunday vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun vakolatli mutaxassislar, keng doiradagi laboratoriya va diagnostika tekshiruvchi usullari kasallikni erta bosqichida aniqlanishi va uni davolashga imkon beradi. Bu borada mutaxassislar sog'lom turmush tarzini targ'ibotini olib borishlari, immunitetni mustahkamlashdagi chora tadbirlar, shaxsiy va jamoat gigienasi qoidalariga amal qilishlari zarurligini ta'kidlashlari shart. So'ngi yillar davomida olimlar va shifokorlar Covid-19 ning inson tanasiga etkazadigan zararini baholashga harakat qilishdi, ammo minglab olim va millionlab odamlarda kasallik asoratlari kuzatilgan. Britaniyalik tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kasallikning asosiy belgilari 30 kun yoki undan ko'proq vaqt ichida paydo bo'lishi, yo'qolishi va yana paydo bo'lishi mumkin.

Avvallari kovid kabi SARS va boshqa parranda grippi keng tarqalgan respirator kasallik hisoblangan bo'lsa ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, koronavirus ham (uning rasmiy nomi SARS-CoV-2) o'pka, miya, ko'zlar, yurak, qon tomirlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jigar, buyraklar va ichaklar, ya'ni tom ma'noda barcha muhim organlarni zararlashi mumkin bo'lgan kasallikdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki Covid-19 turli xil alomatlar bilan birga keladi va og'ir kasal bo'lganlar uchun uzoq davom etadigan asoratlar o'pka tuqimalarining chandiqlari va buyrak etishmovchiligi va yurak mushaklari yallig'lanishi aritmiya, jigar shikastlanishigacha borishi mumkin. Yana bir taxminga ko'ra, Covid dan so'ng immun tizimi normal holatga qaytmaydi va sog'liqni zaiflashtiradi. Ammo Covid odamning metabolizm jarayoniga ham ta'sir qilishi mumkin. Covid sababli rivojlangan diabetdan so'ng qondagi glyukoza miqdorini nazorat qilishga qiynalayotgan odamlar ham bo'ldi.

Sarsdan so'ng bir yilgacha tananing yog'ni qayta ishlashi o'zgarib qolgan holatlar ham qayd etilgan. Miya strukturasi ham o'zgarish belgilari kuzatilgan, ammo bular hali o'rganish bosqichida. Bizning deyarli har birimiz tuzalishi yillarcha davom etgan infeksiyaga chalingan bo'lishimiz ham mumkin. "Covid sababli uzoq davom etadigan simptomlar borligi tufayli va bunga yo'liqayotgan odamlar soni ham ancha katta aftidan," deydi prof. Braytling. Bu yerda urg'u "aftidan" so'ziga tushayotgan bo'lsa-da, qancha odam kasallangani haqida to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lmaganimizgacha, bu simptomlar kanchalik keng tarqalganini bila olmaymiz, deydi u. "Bu virusning organizmga hujum qilishi va uning hujayralarning ishlash tarziga ta'sir qilishidagi o'ziga xoslik boshqa viruslar va davomli simptomlarga nisbatan odamlarni ko'proq qiynamoqda," deydi prof. Braytling. Cho'zilgan Covid dan aziyat chekayotganlar soni vaqt o'tib kamayayotgan ko'rinayapti. Bu virus 2019- yil oxirlarida paydo bo'lgan va 2020 yil boshlarida dunyo bo'ylab tarqalgan bo'lib, infeksiyaning asoratlarini 25 yil davomida odamlarni kuzatish ishlari davom etishi mumkin. Lekin ba'zida juda oz odamda bu simptomlar bir yildan ortiq davom etadi. Ammo adashayotgan bo'lishimiz ham mumkin,"

deydi prof. Braytling. Ammo odamlar hozir tuzalayotgandek ko'ringani bilan ular bir umrlik asoratlar bilan qiynalishlari mumkinligi haqida xavotirlar ham yo'q emas.

Ayrimlar cho'zilgan Coviddan qiynalayotgani va bu qiynalayotganlarga yetarlicha e'tibor berilmayotganidan xavotirga tushyapti. Charchoq, parishonxotirlik, yurak va nafas olishdagi qiyninchilik - bular koronavirusga chalingan bemorlarda sog'aygandan keyin ham davom etadigan ba'zi muammolardir. Olimlar kasallikning uzoq muddatli asoratlarini hanuz o'rganmoqdalar. Ko'plab odamlar koronavirus asoratlari batamom yo'qolma-ganidan shikoyat qilmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, bemorlarda tushkunlik, kayfiyat o'zgarishi va bezovtalik ham ko'p uchramoqda.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Eriksson BI, Borris LC, Friedman RJ et al. Rivaroxaban versus Enoxaparin for Thromboprophylaxis after Hip Arthroplasty *NEJM* 2008;358:2765- 75.10. ISIDOG Recommendations Concerning COVID-19 and Pregnancy Diagnostics 2020, 10, 243; doi:10.3390/diagnostics10040243
2. Eriksson BI; Dahl OE; Huo MH et al. Oral dabigatran versus enoxaparin for thromboprophylaxis after primary total hip arthroplasty (RE-NOVATE II\*) *Thrombosis and Haemostasis* ; 2011;105:1-11.
3. Ringley CD, Johanning JM, Gruenberg JC, Veverka TJ, Barber KR. Evaluation of pulmonary arterial catheter parameters utilizing intermittent pneumatic compression boots in congestive heart failure. *Am Surg.* 2002;68:286- 289.
4. Turpie AG, Bauer KA, Eriksson BI, Lassen MR. Fondaparinux vs enoxaparin for the prevention of venous thromboembolism in major orthopedic surgery: a meta-analysis of 4 randomized. 112